

SHAKIROVA Zulfiya Normahamatovna,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrası dotsenti,
tarix fanlari nomzodi
zulfiashakirova@gmail.com

IZZATULLAYEVA Gulmira Aytmetovna,
Yassaviy nomidagi xalqaro
qozoq-turk universiteti

ARAB TILINI O'RGATISHDA MASOFAVIY TA'LIMNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

ПОЗИТИВНЫЕ И НЕГАТИВНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

POSITIVE AND NEGATIVE ASPECTS OF DISTANCE EDUCATION IN TEACHING ARABIC

Annotatsiya: XXI asrda Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, internetning ommalashuvi ta'lim tizimiga yangi – “masofaviy ta'lim” tushunchasini olib kirdi. Masofaviy ta'lim shunigdek, raqamli ta'lim, virtual ta'lim, elektron ta'lim deb ham atala boshlandi.

Mazkur maqolada masofaviy ta'limning xususiyatlari, uni amalga oshirishdagi ijobiy va salbiy jihatlar ko'rib chiqilga. Pandemiya davrida O'zbekiston xalqaro universitetida olib borilgan masofaviy ta'lim arab tili o'qitish misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, arab tili, nazoratlar, platformalar.

Аннотация: В XXI веке развитие информационных технологий, популяризация Интернета ввели в систему образования новое понятие «дистанционное образование». Дистанционное образование еще называют цифровым образованием, виртуальным образованием, электронным образованием.

В данной статье будут рассмотрены особенности дистанционного образования,

положительные и отрицательные стороны его реализации. В условиях пандемии дистанционное образование, проводимое в Международной Исламской академии Узбекистана, проиллюстрировано на примере преподавания арабского языка.

Ключевые слова: информационные технологии, дистанционное образование, арабский язык, элементы управления, платформы.

Annotation: In the 21st century, the development of information technology and the popularization of the Internet introduced a new concept of “distance education” into the education system. Distance education is also called digital education, virtual education, e-education.

This article will discuss the features of distance education, the positive and negative aspects of its implementation. In the context of a pandemic, distance education conducted at the International Islamic Academy of Uzbekistan is illustrated using the example of teaching Arabic.

Keywords: information technology, distance education, Arabic, controls, platforms.

KIRISH

XXI asrda Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, kompyuter va keyin mobil qurilmalarning paydo bo'lishi, internetning ommalashuvi ta'lim tizimiga yangi – “**masofaviy ta'lim**” tushunchasini olib kirdi. Masofaviy ta'lim tadqiqotchilar tomonidan turli nomlar bilan-raqamli ta'lim, virtual ta'lim, elektron ta'lim deb atala boshlandi.

Masofaviy ta'limning xususiyatidan kelib chiqib unga ta'rif berilsa, u istalgan joydan turib, qaysi vaqt bo'lishidan qat'iy nazar, shaxsiy reja asosida o'qish hamda bilim olish jarayonidir. Masofaviy ta'limning asosiy maqsadi – tinglovchilarning qayerda yashashidan qat'iy nazar, jahondagi ixtiyoriy ta'lim muassasasida o'qish imkoniyatlarini yaratish, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning uzluksiz ta'lim olishlarini ta'minlash va ta'limning turli shakllarini bir-biriga yaqinlashtirishdan iboratdir [4:5-6].

Masofaviy ta'lim bugungi kunda ta'limning ajralmas qismiga aylanib ulgurd. Bu turdagi

ta'limning o'quv jarayonlarida qo'llanilishining asosiy sabablaridan biri ta'lim tizimini yangidan isloh qilish, yangicha informatsion texnologiyalarga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish hamda ularni joriy qilishdir.

Prezidentimiz tashabbusi bilan masofaviy ta'limni rivojlantirish uchun keng ko'lamli ishlar olib borilib, buning natijasida Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022-yildagi 559-son qarori bilan Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi [2]. Bugungi kunda ushbu qaror ijrosini ta'minlagan uchun ko'plab oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim shakli joriy qilinib, o'quv mashg'ulotlari masofadan turib olib borilmoqda va bu ta'lim turini rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

ASOSIY QISM

Barchamizga ma'lumki, "Covid-19" pandemiyasining butun dunyo bo'ylab tarqalishi ta'lim sohasida masofaviy ta'limning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ushbu inqiroz natijasida yuzaga kelgan ko'plab salbiy jihatlarga qaramay, ta'lim to'xtab qolmasligi uchun qaratilgan sa'y-harakatlarni faollashtirildi. Ta'lim jarayonini yaxshilovchi dasturiy ta'minotlar ishlab chiqildi. Ta'limda texnologiyadan samarali foydalanishga e'tibor qaratilib, sohaga oid maqolalar yozildi hamda mahalliy va xalqaro konferensiyalar tashkillashtirildi. Xususan, xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limni qo'llash bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Pandemiya sharoiti chet tillarini o'qitishda masofaviy ta'limdan foydalanishning yangi usullarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish imkonini yaratilishiga olib keldi. Kundalik hayotimizga kirib kelayotgan har qanday yangilikning ijobiy va salbiy jihatlari bor bo'lganidek, arab tilini masofadan o'rgatishning ham o'ziga xos jihatlari o'rganildi. Bu borada soha mutaxassisleri tomonidan ko'plab fikrlar aytili va amaliy maslahatlar berildi.

Mutaxassislar tomonidan pandemiya sharoitida chet tillarini xususan arab tilini masofadan

o'qitishda erishilgan yutuq va kamchiliklar tahlil qilindi. Ular asosida masofaviy ta'limning ijobiy tomonlariga quyidagilar kiritildi:

✓ Arab tilini ta'lim muassasalarida o'qish imkoni bo'lmaganlar uchun masofaviy ta'lim eng qulay hisoblanadi.

✓ Dunyo bo'ylab arab tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish osonlashadi.

✓ Masofaviy ta'lim vaqt va kuchni tejaydi va o'quv materiallarini taqdim etishni osonlashtiradi. Xarajatlarga pul tejaydi

✓ Talabalarning bir-biri bilan aloqalari kengayadi. Internet orqali talabalar o'z yosh guruhidagi boshqa talabalar bilan muloqot qilish imkoniga ega bo'ladi.

✓ O'quvchiga ma'qul keladigan turli xil o'qitish usullari va zamonaviy strategiyalardan foydalanish osonlashadi.

✓ Talaba yoqtiradigan va undagi barcha texnik vositalar bilan bog'liq, uning ongiga yaqinroq bo'lgan interfaol materiallarni yaratish osonlashadi.

✓ Arab tilini masofaviy ta'lim orqali o'rgatishda ushbu tildan foydalanadigan ommaviy axborot vositalari va ta'lim platformalaridan katta foyda olish mumkin.

✓ Bu arab tilini o'rgatmoqchi bo'lgan ko'plab o'qituvchilarni ish bilan ta'minlandi.

Masofaviy ta'limning salbiy jihatlari quyidagilarni kiritish mumkin:

✓ Ayrim mamlakatlaridagi internet tarmog'i tezligining pastligi masofaviy ta'limni sifatli amalga oshirishda to'sqinlik qiladi.

✓ Masofaviy ta'lim orqali test sinovlari o'tkazilganda ko'pgina talabalar tarmoqda xizmat ko'rsatish yomonligi yoki uzilishlar natijasida muammolarga duch kelishadi, bu esa professordan tarmoq xizmati uzilib qolgan talaba uchun testni takrorlash va uni ikkinchi va ehtimol uchinchi marta takrorlash imkoniyatida moslashuvchan bo'lishini talab qiladi. O'qituvchi va professor-o'qituvchilar buning uchun bir nechta test modellarini tayyorlashlari kerak. Bu esa o'z navbatida qo'shimcha vaqtni talab qiladi.

✓ Ko'pgina talabalar professor platforma orqali taqdim etayotgan o'quv materiallariga kirishda qiyinalishlarini aytadilar. Shuning uchun talabaga o'quv materiallariga oson kirishga imkon berish yo'llari ishlab chiqilishi kerak.

✓ O'qituvchilar an'anaviy ta'lim uchun tayyorlangan o'quv dasturlaridan foydalanishadi. Ularning ayrim jihatlari masofaviy ta'limga mos kelmaydi. Shuning uchun masofaviy ta'limga mos keladigan o'quv dasturlari tayyorlanishi kerak.

✓ Darsga tayyorgarlik ko'rish yoki uydan ishlash uchun kompyuter ekrani oldida ortiqcha o'tirish o'qituvchilar sog'lig'ga zarar qiladi.

✓ O'qituvchi tomonidan o'qitiladigan talabalar sonining ko'pligi uning diqqatini chalg'itadi.

✓ O'qituvchining texnologiya bo'yicha tajribasi yo'qligi, masofadan ta'lim olishni qiyinlashtiradi yoki talabalarni zerikishiga olib keladi.

✓ Dangasa talabalarga darsga ulanib, boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'lib o'tirishlariga imkon yaratib beradi.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida pandemiya davrida barcha fanlar, xususan arab tilini o'rgatishda ham masofaviy ta'lim joriy etildi. U bir necha ko'rinishda amalga oshirildi. Zamonaviy axborot texnologiyalari kafedrasida o'qituvchilari tomonidan ishga tushirilgan "e_Study" platformasi orqali o'quv materiallarini ma'ruza, video shaklida joylab dars o'tish yoki belgilangan vaqtda to'g'ridan to'g'ri videodarslar olib borish imkonini yaratildi. Platformadagi amalga oshiriladigan ishlar o'qituvchi va talaba o'rtasida aloqa o'rnatilishini to'liq ta'minlab berdi. Platforma orqali dars o'tish bilan birga turli shakldagi nazoratlar ham o'tkazildi. Nazoratlar test yoki berilgan vazifani bajarib yuklash bilan amalga oshirildi. Masofadan ta'lim berish jaroyoni professor-o'qituvchilarga axborot texnologiyalarini puxta zamin bo'ldi. Darslarning video shaklida taqdim etilishi talabalarga o'quv materialini o'z imkoniyatidan kelib chiqib o'rganish va chuqur o'zlashtirish uchun uni bir necha marta tomosha

qilish imkonini berdi. Masofaviy ta'limni amalga oshirishda "Zoom" videokonferensiyalar o'tkazish platformasi va "Telegram" ijtimoiy kanalidan ham unumli foydalanildi.

Joriy etilgan masofaviy ta'limni amalga oshirishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan salbiy jihatlar ham kuzatildi. Talabalar platformaga yuklangan o'quv materiallarni ocholmayotganliklari, elektr tarmoqlarida uzilishlar bo'lib turishi yoki internet yaxshi ishlamayotgani bois darslarga kira olmayotganliklaridan shikoyat qildilar. Shu bilan birga dars vazifalarini yuklashda dangasa talabalarga uy vazifalari va nazorat ishlarini ko'chirib olishga imkon paydo bo'ldi. Arab tili fanidan nazorat ishlari haqqoniy amalga oshirilishi uchun o'qituvchilar tomonidan nazorat ishlari bir necha turda ishlab chiqildi. Nazorat savollarining bir qismi "Kahoot", "Quizziz" elektron test platformalari orqali o'tkazilgan bo'lsa, og'zaki nutqni tekshirish bo'yicha "Zoom" platformasida yuzma-yuz shaklda o'tkazildi va yaxshi natijalar berdi.

Pandemiya davrida masofaviy ta'lim turini rivojlantirish, undagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida o'zaro fikr almashish uchun xorijlik mutaxassislar bilan videokonferensiyalar tashkil etildi. Shuningdek, arab tili o'qitishda eng malakali mutaxassislarni darslarga jalb qilish imkonini yaratildi. Hozirgi kunda ham kafedra o'qituvchilari masofadan turli xalqaro anjumanlar va malaka oshirish kurslarida o'qib o'zaro tajriba almashib, arab tilini o'qitish bo'yicha yangi yangi malakalarga ega bo'lmoqdalar.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, arab tilini masofadan o'qitishda samaraga erishish ko'p hollarda o'quv materialini to'g'ri tanlash va darsni tashkillashtirishga bog'liq. Arab tilini onlayn o'qitish uchun o'qituvchidan masofaviy o'qitish tizimiga tayyor bo'lishi, ya'ni ilg'or o'qitish texnologiyalarini o'zlashtirganlik talab etiladi.

Masofaviy ta'limning yuqorida ko'rib chilgan ijobiy va salbiy jihatlarini qiyoslasak, uning

bugungi kunda barcha uchun qimmatli bo'lgan vaqt va mablag'ni tejash, bir vaqtning o'zida ko'p ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi deyish mumkin. Mavjud kamchililarni bartaraf etish uchun esa quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

– Masofaviy ta'lim orqali sinfdagi talabalar va o'quvchilar soni bo'yicha nazorat o'rnatilishi kerak. Chunki sonning ko'pligi darsdan olinadigan foyda darajasiga salbiy ta'sir qiladi va o'quvchilar ishtiroki va o'qitish samaradorligini pasaytiradi.

– Arab tilini masofadan o'rgatuvchi ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilib, bu borada tajriba almashish kerak.

– Ko'pchilik talabalar darsdan zerikkanliklarini tan olishdi. Buning oldini olish uchun metodlar va materiallar xilma-xil bo'lishi va ma'lumotni taqdim etish va uzoq vaqt davomida gapirish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'quvchining faol ishtirok etishi, materiallar, mashqlar va usullarni xilma xil qilish kerak.

– Ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim bo'yicha talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish kerak. Bu mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Masofaviy ta'lim ikki tomonlama harakatni, keng qamrovli tayyorgarlikni, shuningdek, talabalarga topshiriqlar berishni talab qiladi

– Til o'rgatishda talab qilinadigan me'yorlardan kelib chiqib, nimani o'rgatish va qanday o'rgatishni belgilab olish kerak.

– Masofaviy ta'limda uy vazifasi va nazorat ishlarini ko'chirmasdan topshirish yo'llarini ishlab chiqish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2021-yil 19-may.
2. Vazirlar Mahkamasining 559-son qarori bilan "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi" nizomi. 2022-yil 3-oktabr.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev "Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari"

yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishi. 2021-yil 6-may.

4. Abduqodirov A., Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan. 2009.
5. Xalid Abu Amsa. At-ta'lim as-sahabiy ('an bu'd) fi ta'limiyyati al-arabiyya lin- natiqina big'ayriha. Amman. Dar kunuz al-ma'rifa. 2021.
6. Muhammad al-Hadiy. Al-ta'lim al-iliktruniy 'abra shabakat al-intirnit. Al-Qahira. Al-Dar al-misriyya al-lubnaniyya. 2007.